


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

70230104 – Adabiyotshunoslik (adabiyot nazariyasi) magistratura
mutaxassisligining malaka talablari

TOSHKENT- 2023



ISHLAB CHIQLILGAN: MUNDARIJA

• Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil "07" 08 dagi 344-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

2.3.3 Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

| T/r | | bet |
|--------|--|-----|
| 1. | 70230104 – Adabiyotshunoslik (Adabiyot nazariyasi) magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi..... | 4 |
| 1.1. | Qo‘llanish sohasi..... | 4 |
| 1.1.1. | 70230104 – Adabiyotshunoslik (Adabiyot nazariyasi) magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo‘llanilishi..... | 4 |
| 1.1.2. | Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari..... | 4 |
| 1.2. | 70230104 – Adabiyotshunoslik (Adabiyot nazariyasi) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlari tasnifi..... | 4 |
| 1.2.1. | 70230104 – Adabiyotshunoslik (Adabiyot nazariyasi) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.... | 4 |
| 1.2.2. | 70230104 – Adabiyotshunoslik (Adabiyot nazariyasi) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.. | 5 |
| 1.2.3. | 70230104 – Adabiyotshunoslik (Adabiyot nazariyasi) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari..... | 5 |
| 1.2.4. | 70230104 – Adabiyotshunoslik (Adabiyot nazariyasi) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrarning kasbiy vazifalari..... | 5 |
| 2. | 70230104 – Adabiyotshunoslik (Adabiyot nazariyasi) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar..... | 7 |
| 2.1. | Umumiy kompetensiyalar..... | 7 |
| 2.2. | Kasbiy kompetensiyalar..... | 9 |
| 2.3. | Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta‘minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar..... | 11 |
| 2.3.1. | Kvalifikatsiya..... | 11 |
| 2.3.2. | 70230104 – Adabiyotshunoslik (Adabiyot nazariyasi) magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar..... | 12 |
| 2.3.3. | 70230104 – Adabiyotshunoslik (Adabiyot nazariyasi) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha ta‘lim dasturining tuzilishi..... | 12 |
| | Bibliografik ma‘lumotlar..... | 13 |
| | Kelishuv varog‘i..... | 14 |

1. 70230104 – Adabiyotshunoslik (Adabiyot nazariyasi) magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi

70230104 – Adabiyotshunoslik (Adabiyot nazariyasi) magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. **70230104 – Adabiyotshunoslik (Adabiyot nazariyasi) magistratura mutaxassisligi** malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi **70230104 – Adabiyotshunoslik (Adabiyot nazariyasi) magistratura mutaxassisligi** bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamdao'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quvbo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor- o'qituvchilari;

- magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan bakalvriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 70230104 – Adabiyotshunoslik (Adabiyot nazariyasi) magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi

1.2.1. **70230104 – Adabiyotshunoslik (Adabiyot nazariyasi) magistratura mutaxassisligi** bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:

70230104 – Adabiyotshunoslik (Adabiyot nazariyasi) magistratura mutaxassisligi – Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalarida o‘zbek tili, umumta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida o‘zbek tili va adabiyot fanlarini o‘qitish; O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida ilmiy-tadqiqot markazlarida, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, turli mulkchilik shaklidagi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalarida, davlat boshqaruvi organlarida, har xil shakldagi mulk, sanoat va biznes tashkilotlarida mutaxassislikka oid kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 70230104 – Adabiyotshunoslik (Adabiyot nazariyasi) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob‘ektlari:

- adabiyot nazariyasi;
- o‘zbek adabiyotshunosligining taraqqiyot qonuniyatlari;
- umumfilologik va ijtimoiy fanlar mazmuniga taalluqli bo‘lgan badiiy asar;
- adabiy jarayon;
- nazariy poetika;
- she‘r nazariyasi;
- drama nazariyasi;
- roman nazariyasi
- tahlil va talqin usullari;
- adabiyotshunoslikning ilmiy-nazariy tushunchalari;
- adabiyotshunoslikda ilmiy tadqiqot metodologiyasi;
- bolalar adabiyotining nazariy muammolari.

1.2.3. Mutaxassislik bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- ilmiy-tadqiqot faoliyat;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyat;
- pedagogik faoliyat: Oliy, malaka oshirish, qayta tayyorlash ta’lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda umumta’lim, o‘rta maxsus, professional ta’lim tizimida pedagogik faoliyat (o‘rnatilgan tartibda);
 - turli xizmatlar ko‘rsatish kabilarni o‘z ichiga oladi.

1.2.4. 70230104 – Adabiyotshunoslik (Adabiyot nazariyasi) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrning kasbiy vazifalari:

70230502 – Adabiyotshunoslik (*Adabiyot nazariyasi*) magistratura mutaxassisligi bitiruvchilari kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida qo‘shimcha kasb ta’limini olishi mumkin.

Shuningdek, magistrlar kasbiy moslashuv imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatlarini tashkil etishi mumkin.

Ilmiy tadqiqot faoliyatida:

- tegishli fan sohalariga oid ilg'or tajribalarni inobatga olgan holda, mutaxassislikka oid yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar va ilmiy-tadqiqot loyihalarini o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish;
- kasbiy faoliyatiga mos ilmiy adabiyotlarni, ilmiy tadqiqot loyihalarini va yangi ilmiy natijalarni o'rganish;
- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish;
- ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish;
- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;
- mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish;
- yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;
- o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish; *qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.*

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;
- nostandart vaziyatlarda tashkiliy boshqaruv qarorlari qabul qilishi va ushbu qarorlar uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga ola bilish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;
- e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o'qitishni tashkil qilish va korporativ ma'lumotlar bazasini rivojlantirish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etish;
- nodavlat va notijorat tashkilotlarida, xususiy tadbirkorlik sub'ektlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha menejer sifatida faoliyat yuritish *qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.*

Pedagogik faoliyatda:

- o'qitish metodikasini egallash;
- oliy ta'lim, umumta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi muassasalarida mutaxassisligiga oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish;
- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan'anaviy o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;
- o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish;
- mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi turli usullar, vositalar va boshqa sohalarda o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish;
- gumanitar fanlar sohasi uchun DTS, Malaka talablari, Davlat talablari va boshqa o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish *qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.*

Turli xizmatlar ko'rsatish:

- mutaxassislikka mos maslahatchilik xizmati;
- o'zbek adabiyotshunosligi tarixini ilmiy o'rganish, jarayonlarni ob'ektiv va xolis ilmiylik nuqtai nazaridan yoritish;
- tadqiq qilingan mavzular bo'yicha aniq ma'lumotlarga ega bo'lish;
- kutubxonalar, axborot-ressurs markazlari, vaqtli matbuot sahifalari va arxiv ma'lumotlaridan foydalana olishga oid metodik faoliyatni amalga oshirish;
- qadimgi qo'lyozma va toshbosma manbalarni o'qiy olish, ulardan foydalanish;
- pullik ta'lim xizmati ko'rsatish;
- ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha davlat grantlari va xo'jalik shartnomalari asosida tadqiqot ishlari boshqa xizmatlarni ko'rsatish *qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.*

2. 70230104 – Adabiyotshunoslik (*Adabiyot nazariyasi*) magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrnlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi; ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- milliy-ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlar bo'yicha o'z nuqtai nazarini og'zaki va yozma bayon etishi, milliy g'oyaning nazariy asoslarni anglagan holda "Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot qurish" bosh g'oyasining mohiyatini hamda uning asosiy g'oyalar bilan mutanosibligi va farqini bilishi;
- tabiat va jamiyatda yuz berayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, insonning ma'naviy qiyofasi haqida bilimlarga ega

- * bo'lishi, ulardan hayotda va kasbiy faoliyatida hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda foydalana olishi;
 - shaxsning inson, jamiyat, atrof muhitga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy me'yorlarni kasbiy faoliyatida qo'llay olishi;
 - yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olishi, takomillashtirishi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila bilishi;
 - o'zining individual bilimlariga tayangani holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilishi;
 - o'z faoliyatida me'yoriy huquqiy hujjatlardan foydalana bilishi;
 - fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga, og'zaki va yozma nutqini aniq bayon qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
 - o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;
 - ilmiy faoliyati natijalarini his qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy mas'uliyat shakllangan bo'lishi;
 - kasbiy faoliyatda o'zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, metodlarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;
 - xorijiy tillardan birini ilmiy muloqot va kasbiy malaka almashish vositasi sifatida egallagan bo'lishi;
 - axborotni to'plash, saqlash, ularga ishlov berish va ulardan foydalanish usullarini egallashi;
 - o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;
 - axborot, bilim, ma'lumotni bir-biridan farqlash malakasiga ega bo'lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olishi;
 - bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
 - internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
 - pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishi;
 - ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishi;
 - ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlashi;
 - patent olish uchun ish me'yoriy hujjatlar tayyorlay olishi;
 - davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi lozim.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

– adabiyotshunoslikda ilmiy-tadqiqot metodologiyasining ilmiy-nazariy muammolarini tizimli o'rganish;

– Ta'limning yuqori bosqichida adabiyotshunoslikka oid fanlarning mazmun-mohiyatini to'g'ri tushuntirish hamda shu fan doirasida mashg'ulot olib borish malakasini shakllantirish. Adabiyotshunoslik fanlari bo'yicha mashg'ulotlarning asosiy shakllari va ularni olib borish metodikasi; oliy ta'lim o'qituvchisining darsga tayyorgarlik ko'rish, talabalarning mustaqil ishlari va ilmiy faoliyatiga rahbarlik qilish hamda o'zining kasbiy darajasini oshirib borish bo'yicha bajaradigan ishlarini o'rgatish.

– Adabiy-nazariy tafakkur tarixini bilishi kerak.

– nazariy poetika masalalarini o'rganish va ularni badiiy matnda tadqiq etish;

– bolalar adabiyotining nazariy muammolarini o'rganish, bolalar asarlarini o'rganish tadqiq qilishni bilish;

– Adabiy tanqid ilmiy-nazariy muammolarini tizimli o'rganish

– She'r qoidalarini she'riy san'at va adabiyot qoidalari orqali o'rganishning ilmiy-nazariy muammolarini bilish

– Drama nazariyasiga oid asarlar poetikasiga oid asarlar ilmiy qonuniyatlarni anglash va ilmiy faoliyatda qo'llay olish, dramatik tur namunalari matnlarini tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'lish

– Mumtoz tarixiy poetikaning nazariy muammolarini o'rganish, milliy adabiyot tarixini nazariy aspektda o'rganish va uning madaniy va ma'naviy ildizlariga oid muhim muammolarni tahlil qilish ruhida tarbiyalashga qaratilgan. Badiiy asarlarni va adabiy namunalarni tarixiy-nazariy aspektda o'rganish orqali talabalarning dunyoqarashi va ilmiy tafakkurini kengaytirish nazarda tutilgan.

– yangi o'zbek adabiyoti muammolarining o'ziga xos jihatlari va adabiy-nazariy tafakkur tarixi masalalaridan xabardor bo'lish;

– Zamonaviy o'zbek adabiyotining o'ziga xos jihatlari va adabiy-nazariy tafakkur tarixi masalalaridan xabardor bo'lish, zamonaviy o'zbek nasrining poetik xususiyatlari va takomil yo'lini ijodkor laboratoriyasi bilan omuxta o'rganish;

– Jahon estetik tafakkuri va adabiyotshunosligi erishgan yutuqlarni zamon talablari nuqtai nazaridan o'rganishdan iborat. Adabiyotshunoslik taraqqiyotiga xizmat qilgan adabiy oqimlarning adabiy tafakkur tarixidagi o'rnini belgilash, XX asr yangi davr adabiyotshunosligining vujudga kelishida omil bo'lgan nazariya va konsepsiyalarning adabiyot tarixidagi o'rnini belgilashdan iborat.

– Mumtoz asarlarni sharhlash tamoyillari va usullari bilish, amalda qo'llay olish

- Adabiyotning tarixiy taraqqiyoti bosqichlari va davrlashtirish, mumtoz adabiyotdagi eng muhim yo'nalishlar, diniy va dunyoviy mazmundagi adabiyot, saroy adabiyoti, o'zbek mumtoz adabiyoti janrlarining vujudga kelish tarixi va nazariyasi, mumtoz she'riyat va nasrning xususiyatlari, so'fiy shoirlar ijodiy merosi, mumtoz she'riyat asoslari haqida bilimga ega bo'lishi nazarda tutiladi.
- mumtoz nazmiy va nasriy asarlar matni poetikasiga oid nazariy qonuniyatlarni anglash va ilmiy faoliyatda qo'llay olish, mumtoz adabiyot namunalari matnlarini tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'lish;
- adabiyot nazariyasi muammolarini ilmiy asarlar orqali tadqiq eta bilish;
- badiiy asar tahlili amaliyotini belgilangan tamoyillar asosida amalga oshirish;
- badiiy asar poetikasiga oid nazariy qonuniyatlarni anglash va ilmiy faoliyatda qo'llay olish;
- adabiyotshunoslik tarixining takomil bosqichlari va taraqqiyot tendensiyalaridan xabardor bo'lish;
- adabiyotshunoslik asoslarini adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, adabiyotshunoslik terminlari va ularning nazariy asoslaridan xabardor bo'lish;
- adabiy tanqid imiy-nazariy muammolarini tizimli o'rganish;
- sharq adabiy- nazariy tafakkuri tarixini bilishi kerak;
- roman nazariyasi bilan bog'liq muammolarni badiiy adabiyotda janrlar tadriji orqali o'rganish;
- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;
- umumiy o'rta ta'lim muassasalarida, *O'MKHT* va *OTM* tizimining mos ta'lim muassasalarida tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy mashg'ulotlarni o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- umumiy o'rta ta'lim muassasalarida, *O'MKHT* va *OTM* tizimining mos o'quv muassasalarida tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini, jumladan o'quv ustaxonalarida, o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- zamonaviy informatsion va pedagogik texnologiyalardan foydalanib, nos-tandart o'quv mashg'ulotlarini ishlab chiqish va o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni shakllantirish va tuzish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- o'qitilayotgan fan bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalarini ishlab chiqish va ularning ekspluatatsiyasi qobiliyatiga ega bo'lishi;

- mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va shakllar jabhalarida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- elektron (e-learning) va mobil (m-learning) o'qitish uchun o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

- Magistrantlar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tash hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

- Majburiy fanlar – magistratura bosqichi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

- Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabanning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Magistratura mutaxassisligi bo'yicha quyidagi ilmiy faoliyat o'tkaziladi:

- Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish – magistrlik mavzusi doirasida ilmiy-nazariy adabiyotlar bilan tanishadi, ilmiy-tadqiqot ishini olib boradi.

- Ilmiy-pedagogik ish – magistrning kelgusida oliy ta'lim va quyi ta'limda pedagog sifatida faoliyat yuritishi hisobga olinib, dars jarayonini kuzatadi, bilim va ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

- Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish) – magistrning nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi. Shu maqsadda ilmiy-tadqiqot muassasalarida amaliyot olib boradi.

2.3.1. Kvalifikatsiya: filolog-adabiyotshunos (tadqiqotchi).

2.3.2. 70230104 – Adabiyotshunoslik (Adabiyot nazariyasi) magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar:

| O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat | Ajratilgan kredit |
|--|---|-------------------|
| Majburiy fanlar | 1380 | 46 |
| Tanlov fanlar | 420 | 14 |
| Ilmiy faoliyat | 1800 | 60 |
| Jami | 3600 | 120 |

2.3.3. 70230104 – Adabiyotshunoslik (Adabiyot nazariyasi) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:

| T/r | Fanning malakaviy kodi | O‘quv fanlari, bloklari va faoliyat turlarining nomlari | Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda | Jami kredit | Semestri |
|------|------------------------|---|-------------------------------------|-------------|----------------|
| 1.00 | | Majburiy fanlar | 1380 | 46 | |
| 1.01 | AITM 1 05 | Adabiyotshunoslikda ilmiy-tadqiqot metodologiyasi | 150 | 5 | 1 |
| 1.02 | MFO‘M 1 05 | Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi | 150 | 5 | 1 |
| 1.03 | ANNT 1 05 | Adabiy-nazariy tafakkur tarixi | 150 | 5 | 1 |
| 1.04 | NP 1 05 | Nazariy poetika | 150 | 5 | 1 |
| 1.05 | BANM 2 05 | Bolalar adabiyotining nazariy muammolari | 150 | 5 | 2 |
| 1.06 | ATN 2 05 | Adabiy tanqid nazariyasi | 150 | 5 | 2 |
| 1.07 | SHN 2 05 | She‘r nazariyasi | 150 | 5 | 2 |
| 1.08 | DN 2 05 | Drama nazariyasi | 150 | 5 | 2 |
| 1.09 | MTP 3 06 | Mumtoz tarixiy poetika | 180 | 6 | 3 |
| 2.00 | | Tanlov fanlari | 420 | 14 | |
| 2.00 | | <i>Tanlov fanlari (3 ta fan)</i> | 420 | 14 | 1,2,3 |
| 3.00 | | Ilmiy faoliyat | 1800 | 60 | 1,2,3,4 |
| | | HAMMASI | 3600 | 120 | |

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, ilmiy boshqarish, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, zamonaviy o'lchov asboblari, ilmiy-tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

KELISHUV VARAG'I

ISHLAB CHIQILGAN:

Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti



Rektor

Sh.Sirojiddinov

M.O'.

» 07

KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or
texnologiyalarni tatbiq etish markazi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi
Daxlat adabiyot muzeyi

Direktor Sh.Yakubov

Direktor J. Eshonqulov

2023 -yil « 07 » 08

2023 -yil « 10 » 04

M.O'.

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasi O'zbek tili,
adabiyoti va folklori instituti

Direktor N.Mahmudov

2023 -yil « 10 » 04

M.O'.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 70230104 – Adabiyotshunoslik (adabiyot nazariyasi) magistratura mutaxassisligi malaka talablari va o‘quv rejasini ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta‘lim muassasalari va asosiy kadrlar iste‘molchilari o‘rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ 10 ” 07 2023 yil

Biz, quyida imzo chekuvchilar – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori Sh.Sirojiddinov, O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktori N.Mahmudov, O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi direktori J.Eshonqulov bilan birgalikda ToShDO‘TAUda ishlab chiqilgan quyidagi **70230104 – Adabiyotshunoslik (adabiyot nazariyasi) magistratura mutaxassisligi** malaka talablari va o‘quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70230104 – Adabiyotshunoslik (adabiyot nazariyasi).

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-iyundagi “2023/2024 O‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida”gi PF-31-son Farmoyishiga hamda oliy ta‘lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarini ishlab chiqishda asosiy kadrlar iste‘molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori



Sh.Sirojiddinov

O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va
folklori instituti direktori



N.Mahmudov

O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi
davlat adabiyot muzeyi direktori



J.Eshonqulov